



O'ZBEK TILI MORFEMIKASI TASNIFI HAMDA QO'SHIMCHALAR HAQIDA
TO'LIQ MA'LUMOT

Qo'liboyeva Hulkaroy Umidjon qizi

Ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 10-sinf o'quvchisi

Annotatsiya: *Òzbek tili shu qadar boyki, uning har bir qòshimchasi sòzga mutlaqo yangi tushuncha olib kirishi mumkin. Shuning uchun ham biz tilni òrganishimiz barobarida uni turli turkumlar hamda bòlimlarga bòlib òrganamiz. Ana shunday muhim tilshunoslik bòlimlaridan biri bu Morfemikadir. Ushbu maqolada òzbek tili morfemikasi tasnifi hamda ba'zi qòshimchalar haqida qisqacha ma'lumotlar bayon etiladi.*

Kalit sòzlar: *asos, turkum, qòshimcha, ma'no, òzbek tili, umumiy.*

KIRISH. Sòz tarkibi asos hamda qòshimchalardan tarkib topgan. Morfema esa sòzning bòlinmas eng kichik ma'noli qismi. Asos ham qòshimcha ham morfema hisoblanadi. Sòzning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qòllana oladigan qismi asos deyiladi. Mustaqil qòllana olmaydigan, asosga qòshilib, unga yangi yoki qòshimcha ma'ni yuklaydigan, shuningdek, sòzlarni bo'g'lashga harakat qiladigan qismiga qòshimcha deyiladi. MORFEMA (yun. morphe — shakl) — o'ziga xos shakl va ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, so'z (leksema) yasash yoki so'zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik. Morfemalar o'zbek tilida, asosan, affiks (q.) holatida bo'ladi. Mac, chi (kurashchi), – shunos (siyosatshunos), – q (taroq), ki (tepki), li (aklli), chan (ishchan), la (tuzla), – illa (taqilla), lar (bolalar), rok, (kattaroq), – mtir (krramtir) va boshqala

Leksema shakllanuvchanlik, morfema shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko'rinishi qo'shimcha deyiladi. Leksema tarixiy taraqqiyot natijasida morfemaga aylanib borishi, morfema esa so'zning o'zagiga singib ketishi mumkin. Masalan, [xona] leksemasi taraqqiyot natijasida ikkiga ajralgan. Bir ma'nosida «joy» semali yasama so'zni hosil qiluvchi derivatsion vositaga aylanib ketgan, leksemalikdan mahrum bo'lgan. [Noma], [goh], [xo'r] leksemasi ham shunday tarixiy siljishni boshidan kechirgan. Albatta, tildagi bunday hodisalar ilmiy muammo bo'lib, maxsus tekshirish natijasida tayinli xulosaga kelish mumkin. Chunki bu birlikning turkiy unsurlar emasligi shuni taqozo qiladi.

So'zning morfemik strukturasiidagi o'zgarish. Aytilganidek, til taraqqiyoti natijasida so'zning semantik, fonetik strukturasiida bo'lgani kabi, morfemik tarkibida ham jiddiy o'zgarish yuz beradi. Ularning har xil ko'rinishi bor: 1) so'z va qo'shimcha birlashib, so'z tublashishi mumkin yuksal, yuksak; 2) so'z va qo'shimcha birlashib yaxlitlanishi mumkin: biron, biror, bezor, (qo'shimcha bunday zichlashishi natijasida o'z invarianti – morfemasidan uzilishi mumkin); 3) so'z va qo'shimcha orasidagi aloqa soddalashishi mumkin: yumshoq, qattiq; 4) so'z qo'shimcha holiga kelishi, murakkab qo'shimchalar bir-



biriga qo'shilib ketishi, ya'nibirlashishi mumkin: borib yotibdi -borib yatipti – boryapti; ning + i=niki

1) derivatsion morfema; 2) grammatik morfema

Morfemalarning funksional-semantik tasnifi. Morfema funksional-semantik xususiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi

Derivatsion morfema so'zga qo'shilib, yangi so'z hosil qiladi. Yangi so'z yangi lug'aviy va grammatik ma'noga ega bo'ladi. Masalan, [paxta] leksemasi [-chi] affiksini olib, (paxtachi) so'zi vujudga keladi. Yangi lug'aviy ma'no yangi grammatik; ma'noni ham vujudga keltiradi: narsa-byyum oti shaxs otiga aylaladi. Shu bilan birgalikda, yangi so'zning valentlik imkoniyati ham asos so'znikidan keskin farqlanadigan holga keladi.

Grammatik morfema asosiy xususiyatiga ko'ra uchga ajraladi: 1) lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfema; 2) sintaktik shakl hosil qiluvchi; 3) shakl yasovchi kabi

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfema leksema lug'aviy ma'nosini nutqqa moslashtirish vazifasini bajaradi. Masalan, [kitob] leksemasining sememasida birlik va ko'plik ma'nosi noma'lum. Son lug'aviy shakl hosil qiluvchisi bo'lgan [-lar] uni ko'plik tomon muayyanlashtiradi. Bu morfemaning o'ziga xos turi lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema bo'lib, lug'aviy ma'noni muayyanlashtirish, nutqqa xoslash bilan birga ((kelgan), (o'qigach)), so'zni sintaktik aloqaga ham kiritadi: o'qigan bola, o'qigach gapirmoq. Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema so'zning sintaktik qurilmadagi ornini belgilaydi. Masalan, kesimlik kategoriyasi sozga kesimlik mavqeini beradi. Kesimning ega va hol bilan sintaktik aloqasini ta'minlaydi. Kelishik morfemalari oldingi mutaqlil so'zni keyingi, egalik qo'shimchalari esa keyingi mustaqil so'zni oldingisiga bog'lash vazifasini bajaradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bir qo'shimcha so'zni tubdan o'zgartirish xususiyatiga egadir. Shuning uchun ham qo'shimchalar haqida ham biroz ma'lumot o'rinli deb topildi.

So'zlar o'zgarmagan shaklda qo'llanib, qo'shimcha olmasa, u ma'noli qismlarga bo'linmaydi. Agar so'z tuzilishida qo'shimcha ishtirok etsa, u turli grammatik ma'nolarni ifodalaydi. So'zning ma'noli qismi ikki tarkibdan: so'z va qo'shimchalardan tashkil topadi. So'zning o'zi ham muayyan ma'noli qismdir.

. So'z yasovchi qo'shimchalar o'zakka qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil

qiladigan qo'shimchalardir: o't – o'tloq, arra – arrala, kuch – kuchli, hosil – serhosil. So'z yasovchi qo'shimchalar unumli (-li, -la, -chi, ser-, -dosh, -kor) va unumsiz (-vul, -ag'on, -chil, -in, -a) bo'lishi mumkin.

2. So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalardir. Bular 3 turli bo'ladi: 1) kelishik qo'shimchalar:

kitobni, uyga, daftarning. 2) egalik qo'shimchalari: maktabimiz, ukam, bog'i. 3) shaxs-son qo'shimchalari: edik, bordim, kelding, yurasan.

So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar so'zning o'zgarib turadigan qismidir.

3. Shakl yasovchi qo'shimchalar o'zakka qo'shilib, ma'noni bir oz o'zgartiradigan, qo'shimcha ma'no orttiradigan, lekin yangi so'z yasamaydigan qo'shimchalardir. Bular so'zlarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmaydi, balki kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, oshirish, kuchaytirish, gumon, taxmin kabi ma'nolarni ifodalaydi: uycha, kitoblar, kattaroq, ozgina, yurib, onajon, bura, oqarinqiradi, chayqa, tepkila.



Shuni ham aytish kerakki, so'zning morfoemik tarkibi deganda uning o'zak va qo'shimchalardan iboratligi nazarda tutilsa, morfologik tarkibi deganda so'zning negizi va shakl yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar nazarda tutiladi. Shu bilan birgalikda ayrim so'z yasovchi qo'shimchalar tarkibi ikki yoki undan ortiq so'z yasovchi qo'shimchaga mos keladi, biroq bir qo'shimcha vazifasini bajaradi.

Shunga ko'ra so'z yasovchi qo'shimchalar ikki xil: sodda qo'shimchalar, murakkab qo'shimchalar.

Bitta tarkibdan iborat bo'lgan qo'shimchalar sodda qo'shimchalar deyiladi: -chi, -dosh, -zor, -shunos, -lik.

— Ikki yoki undan ortiq qo'shimchalarning birikuvidan tashkil topgan, bir qo'shimcha vazifasini bajaruvchi qo'shimchalar murakkab qo'shimchalar deyiladi: -chilik, garchilik, Ian kabi. Masalan, chorvachilik, loygarchilik, o'ylan so'zlari tarkibidagi -chihk (chi-lik), -garchilik (gar-chi -lik), -Ian (la- n) qismlardan tarkib topgan bitta murakkab qo'shimchadir. -chilik qo'shimchasi ayrim so'zlarda tarkiban ajralishi mumkin bo'lsa-da: suv- ch-lik, o'quv -chi- lik ko'pgina so'zlarda bu qo'shimchani qismlarga ajratib bo'lmaydi: chorvachilik, bog'dorchilik kulolchilik kabi.

So'z yasovchi qo'shimchalar so'z yasashdagi darajasi jihatidan uch xil: unumli qo'shimchalar, kam unum qo'shimchalar, unumsiz qo'shimchalar.

Ko'plab so'zlarning yasalishi uchun ishtirok etadigan qo'shimchalar unumli qo'shimchalar deyiladi. Unumli qo'shimchalarga: ot yasovchi -chi (terimchi, ishchi, xizmatchi); mavhum ot yasovchi -lik (do'stlik, tinchlik); sifat yasovchi -li (kuchli, bilimli); -ma (aylanma yo'l, yasama kulgi). nisbiy sifat yasovchi -gi (-ki, -qi) (kuzgi-qishki); fe'l yasovchi -la (oshla, suvla, ishla) kabilar kiradi

Agar diqqat bilan e'tibor beradigan bòlsak, ona tilimizdagi birgina qòshimcha naqadar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan ona allasi ila qon qonimizga singishib ketgan ona tilimizga bòlgan hurmatimizni unutmasligimiz lozim! Axir buyuk òzbek shoir hamda yozuvchi Erkin vohidov aytganlaridek: "Bir tomchi shabnamdek mòjaz va tiniq elchi degan sof òzbekcha turkiy degan sòzda qancha hikmat bor!"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tilidan ma'ruzalar II. Toshkent. "Nurafshon ziyo yo'g'dusi" 2018. 3-7 bet
2. Azim Hojiyev. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari
<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/9-o-zbek-adabiy-tili?download=8207:azim-hojiyev-o-zbek-tili-morfologiyasi-morfemikasi-va-so-z-yasalishining-nazariy-masalalari>
3. "Sòz latofati, Erkin Vohidov. Toshkent. "Òzbekiston" nashriyoti" 2008.